

**Umida Yuldasheva
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi**

NAVOIY FENOMENI-YANGI O’ZBEKISTON YOSHLARI MA’NAVIYATINING ASL YO’LBOSHCHISI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy shaxsiyatining, ijod va hayot yo’lining bugungi zamonaviy O’zbekiston sharoitida yoshlar ruhiyatida komillikka yetkazuvchi asosiy mezonlardan biri ekanligi borasida so’z boradi va buning dalili o’laroq Navoiy lirikasining ba’zi jihatlariga to’xtalib o’tiladi. Ushbu masalaning qanchalik dolzarbliji va amalga oshirilayotgan har bir ma’rifiy jarayonlar bevosita hamda bilvosita Dahoning umr va adabiy yo’li bilan kesishishi haqida to’xtalib o’tiladi.

Kalit so’zlar: Yangi O’zbekiston, Renessans, adabiy meros, milliy birlik, mustaqillik tafakkuri, hamd, radif, maqta’.

Yosh avlod tarbiyasida Navoiyning o’lmas me’rosi muhim o’rin tutadi. Hozir ba’zi yoshlar orasida jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik singari illatlarning kuzatilayotgani ma’lum darajada Navoiydan uzoqlashganimizning achchiq mevasidir. Bunday muammolarga barham berish uchun Navoiy hikmatlarini yosh avlod ongiga bolalikdan singdirib borish kerak. Navoiyni tushunish, tushuntirish uchun uni sevish, sevdirish lozim. Yangi O’zbekistonda Yangi Renessans yoshlari qalbida Vatanga, millatga muhabbatni shakllantirishda ham Navoiy asarlarining o’rnini katta. Navoiyning nafaqat ijodi, balki sermazmun hayoti ham barchamiz uchun muhtasham namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqsevarligi, haqqparvarligi hammamizga o’rnak bo’lishi lozim. Navoiy ijodi esa barchamizni ogohlilikka, ezgulikka, kamtarlikka undaydi. Mana bu purhikmat satrlarga e’tibor bering:

Bahr din qatrag’a ta’zim ila taxsin ko ’rdim,

Mexrdin zarrag’a e’zoz ila ehson topdim.

Ya’ni, dengizning tomchiga ta’zim ila tahsin qilganini ko’rdim, quyoshning zarraga e’zoz va ehson ko’rsatganiga guvoh bo’ldim, deganlar. Shu baytning o’ziyoq hazratning insoniyatni kamtarinlikka,adolat va insofga da’vat etganini ko’rsatadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ulug’ bobokalonimiz shaxsiyati va ijodiga munosabat tubdan o’zgardi. Hazratning boy adabiy merosiga to’laqonli va haqqoni yondashish imkoniga ega bo’ldik. U zotning ijodini yanada chuqurroq o’rganish bo’yicha ko’plab tadqiqotlar qilinyapti, ilmiy izlashishlar ko’lami yanada kengaymoqda.

Hazrat Alisher Navoiy — butun turkiy she’riyatda eng ko’p g’azal bitgan ijodkor. U umrining oxirlarida o’zbek tilida bitilgan kichik asarları— lirik she’rlarining barchasini jamlab, «Xazoyin ul-maoniy», ya’ni «Ma’nolar xazinasi» degan to’rt kitob tuzgan edi. Ana shu to’rt devonning har birida 650 tadan, hammasi bo’lib 2 ming 600 g’azal mavjud. Devon, bilasiz, shoirlarning kichik, ya’ni lirik asarlarini alifboga asoslangan maxsus tartib asosida joylashtiradigan to’plami hisoblanadi. Harflar asosida joylashtirishda o’sha asarlar, aytaylik, g’azallarning qofiyasi radifli bo’lsa — radifi qaysi harf bilan tugaganiga suyaniladi. Shu tariqa avval «alif», keyin «be», so’ng «te» va hokazo harflar bilan tugagan asarlar berib boriladi. Bu g’azallalar bo’limlari «Alif» radifli

g‘azallar turkumi, «Be» radifli g‘azallar turkumi, «Te» radifli g‘azallar turkumi, va hokazo deb yuritiladi.

Radif — aslida, qofiyadan keyin takrorlanib keladigan so‘zlar, degani. Bu yerda esa u qofiya yo radif tugagan harf ma’nosida keladi. Devonlarda barcha aytaylik, qasida, qit’a, ruboiy, tuyuq va boshqa kichik lirik janrlarda ham alifbo asosida joylashtirish tartibiga istisnosiz amal qilinadi. Navoiy devonlarida ham bu qoidaga qat’iy rioya etilgan. Xo’sh, bir harf turkumiga oid g‘azallarni joylashtirishda qanday ichki tartibga amal qilinadi? Bunda endi g‘azalning mavzusi asos qilib olinadi. Har bir harf guruhi boshida avval hamd, keyin na’t g‘azal keladi. Bordi-yu, shu harf bilan tugaydigan hamd g‘azal bo‘lmasa, guruh bevosita na’t g‘azaldan boshlanadi. Hamd g‘azal ham, na’t g‘azal ham bo‘lmasa, harfiy guruh mav’iza, ya’ni va’z-nasihat ruhidagi g‘azal bilan ochiladi. Xo’sh, hamd nima? «Hamd» so‘zi Navoiy asarlari lug‘atida maqtov, madh, deb berilgan. Islomiy aqidaga ko‘ra esa maqtov faqat va faqat Ollohgagina loyiq, unigina maqtash mumkin va kerak. Shundan ham ma’lum bo‘lib turibdiki, bevosita Olloh ta’rif va tavsif etilgan g‘azallar hamd g‘azallar deyiladi.. Hamd g‘azallarning aksariyatida shoir Olloh kulli mavjudotning yaratuvchisi ekanligini badiiy til bilan ta’riflaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, yaralgalarning bari — Ollohnning mavjudligiga isbot. Chunki tasavvufda butun borliq — Olloh, ya’ni zotning ko‘rinishi, deb qaraladi. Hamd g‘azallarni, shartli ravishda, ikki turga ajratish mumkin:

1. Tavhid hamdlar.

2. Munojot hamdlar.

Navoiy ayrim hamd g‘azallarining maqta’sida shu asarning hamd ekanligini ta’kidlab o‘tadi:

1. Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon qilsun,

Tikan jannat guli vasfin qilurda gung erur go‘yo.

(«G‘aroyib us-sig‘ar», 2-g‘azal).

2. Ushshoq aro, yo Rabki, Navoiyg‘a maqome

Bergilki, sening hamdinga bo‘lsun tili go‘yo.

(«G‘aroyib us-sig‘ar», 3-g‘azal).

3. Navoiyning tilin shukrungg‘a go‘yo aylakim, bo‘lg‘ay

Anga hamding gulistonida har dam yuz navo paydo.

(«Badoye’ ul-vasat», 2-g‘azal).

Yosh avlodning qalbida vatanparvarik kabi muqaddas tuyg‘ularni shaklanntirish dolzarb masala. Qolaversa, o‘zbek milliy an‘analariga ko‘ra dardmandlarga malham topish, ojizlar va kambag‘allarning ko‘nglini ko‘tarish, yetimlar va beva ayollarga yordam, rahmshavqat qilish insoniylik jihatidan burchdir. Shoir bu haqda quyidagi misralarni yozgan: «Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin yod aylagay, Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa obod aylagay. Demakki, bir muhtojning, noiloj, chorasisiz qolgan odamning ko‘nglini ko‘tarish, dardiga malham topish savoblik darajasi jihatidan vayron bo‘lgan Ka’bani qayta tiklashdan afzaldir. Vatanparvarlik

insonparvarlik tushunchachi bilan hamohangdir. Milliy mustaqillik halqimizda, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizda vatanparvarlik tuyg'ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shoirlarimiz Vatanni inson hayotining ma'no-mazmunini belgilaydigan qadriyat deb bilgan. Har ne bo'lsa ham o'z vataniga sodiq qolish g'oyasi hozirgi kun uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. «Odam savdosi deb atalmish girdobning qurbaniga aylangan insonlar soni tobora ko'payib bormoqda. Undan tashqari hozirgi kunda o'zlarining g'arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish maqsadida yurtimizga har-xil yo'llar bilan kirib kelayotgan, mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlarimizni qalbi va ongini qandaydir zararli va buzg'unchi g'oyalar bilan egallahsga harakat qilayotgan yovuz kuchlarga qarsha kurasha olish va o'z yurtini g'anislardan himoya qilish vatanparvar insonlar uddalay oladigan topshiriqdir. Muxtasar qilib aytganda, mutafakkir ma'naviy merosining yosh avlodni g'oyaviy tarbiyasida tutgan o'rni, inson tarbiyasi bilan bog'liq o'gitnasihatlari, fikr-mulohazalari, talab-ko'rsatmalari, orzu-istiklalini bir yerga jamlab, ularni tartib bilan joylashtirib chiqsa, insoniy kamolotga erishish yo'llari ko'rsatilgan o'ziga xos nazmiy dastur, qo'llanma vujudga keladi. Navoiy asarlarining g'oyaviy tarbiyadagi o'rmini o'rganar ekanmiz, g'oyaviy tarbiyaning muhim vositasi bo'lgan adabiyotning naqadar buyuk kuch va katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi!

Allomaning mukammal asarlar to'plami ilgari ham nashr etilgan, biroq o'sha davrdagi mafkura nuqtai nazaridan asarlardagi butun-butun boblar tushirib qoldirilgan. Mustaqillik yillarda Navoiyning mukammal asarlar to'plamini to'lalagicha chop etish ishlari yakuniga yetdi.

Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakkalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'r'in oldi. Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi.

Biz haqli ravishda Navoiyni milliy ong va shuurimizning ulug' charog'boni va ilhomchisi deya olamiz. Navoiyning umrboqiy merosi, el va elatlarni ezgulik, poklik, haqiqat atrofida jipslashtirishga qodir bo'lgan bebaho boyligimizdir. Navoiy asrlar osha barhayot va zamon bilan hamnafasdir.

O'zbekiston milliy istiqlol va mustaqillik yo'llidan og'ishmay olg'a borayotgan bugungi kunda avlodlarimiz o'ngida milliy ong, mustaqillik tafakkuri va milliy birlik kabi g'oyalarni shakllantirishda Mir Alisher Navoiyning bosib o'tgan boy, jo'shqin hayot va ijod yo'lli hammamiz uchun yo'lboshchi hamda yo'lchi chiroq bo'lib xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G'ofurova Z. Navoiyning hamd va na't g'azallari. T.2001,Ma'naviyat nashriyoti
2. Komilova M. Alisher Navoiy ijodiy merosining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. T.2022, "World of Philology" scientific journal
3. Navoiyga qaytish I.Haqulov, T.2007, Fan nashriyoti